

### INKLYUZIV TA'LIM TIZIMINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOG- PSIXOLOGNING KASBIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Gafarova Muxabbat Axmadovna

Osiyo Xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** *Psixologning inklyuziv ta'limg-tarbiya berish jarayonini tashkil qilishda kasbiy etikasi va mahorati hamida inklyuziv ta'limgni tashkil etishga qo'yiladigan talablarni o'rganish.*

**Kalit so'zlar:** Pedagog, psixolog, inklyuziv ta'limg, tarbiya, kasbiy etika, aqli zaif, ko'zi ojiz, korreksiya, nuqson, nogiron, ta'limg, maxsus ta'limg, uydagi ta'limg, defektolog

**Annotation:** *To study the professional ethics and skills of a psychologist in the organization of the process of inclusive education and the requirements for the organization of inclusive education.*

**Key words:** Pedagogue, psychologist, inclusive education, upbringing, professional ethics, mentally retarded, visually impaired, correctional, disability, disabled, education, special education, home education, defectologist

**Аннотация:** Изучить профессиональную этику и навыки психолога при организации процесса инклюзивного образования и требования к организации инклюзивного образования.

**Ключевые слова:** Педагог, психолог, инклюзивное образование, воспитание, профессиональная этика, умственно отсталый, слабовидящий, коррекционный, инвалидность, инвалид, образование, специальное образование, домашнее обучение, дефектолог

#### KIRISH

Ma'lumki, keyingi yillarda mamlakatimizda inklyuziv ta'limga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Prezidentimizning 2020 yil 13 oktyabrdagi "Alohida ta'limg ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'limg-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Shuningdek, 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'limg to'g'risida"gi qonunga ilk bor inklyuziv (uyg'unlashgan) ta'limg tushunchasi kiritildi. Jarayonda yurtimiz umumta'limg maktablarida inklyuziv ta'limgni joriy etish rejasi belgilab olindi. Unga ko'ra, 2025 yilgacha alohida ta'limga ehtiyoji bor bolalarning 40 foizi odatiy maktablarga jalb qilinishi ko'zda tutilgan.

Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyatlari, xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumiyy ta'limg tizimida ta'limgni amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'limg tizimi amalga oshirilmoqda.

"Salamanka deklaratasiysi"ga muvofiq har bir o'quvchi xususiyatlarini isloq qilishni qo'llab-quvvatlovchi va ma'qullovchi dalil sifatida qaraladi. Uning maqsadlari jinsi, irqi, madaniyati, ijtimoiy millati, dini, individual imkoniyati va qobiliyati farqlar sabab ijtimoiy

segregatsiya oldini olish uchun emas. Biroq, kontseptsiya universal foydalanish uchun yaroqsiz bo'lib chiqdi.

Dunyo tajribasiga ko'ra, maktablarda kiritish ko'pincha tengdoshlari bilan birga o'rta maktablarda nogironlar ta'lim sifatida qaraladi (Judi Kugel'mas) biroq, inklyuziv ta'lim mohiyati bilim va bilim hali jamiyatda etarli emas. "Inklyuziv "va" integrallashgan" terminlari ko'pincha bir xil ma'noda ishlataladi. Lekin falsafada bu tushunchalar o'rtasida katta farq bo'lishiga qaramay. Juda uzoq vaqt davomida maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga nisbatan maxsus segregatsion ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya berish samarali deb hisoblanib kelindi.

1970-1980 yillarga kelib jahon miqyosida insonparvarlik va kamshitishlarga yo'l qo'ymaslik g'oyasining ilgari surilishi maxsus ehtiyojli bolalarga e'tiborning yanada yaxshilanishiga olib keldi.

### Muhokama va natijalar

Inklyuziv ta'lim tushunchasi haqida to'xtaladigan bo'lsak, "inklyuziv" so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, "uyg'unlashmoq", "qamrab olmoq", "nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish" ma'nolarini bildiradi. Inklyuziv ta'lim - bu davlat siyosati bo'lib, nogiron yoki boshqa sabablar tufayli maxsus yordamga muhtoj, kasallangan bolalar uchun moslashuvchan va individuallashgan yordam tizimi hamda barcha bolalarni teng ko'rishni ko'zda tutadigan ta'lim turidir. Bunda rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar va iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'i nazar, imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan o'quv jarayoniga jalb etiladi.

Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi:

- ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yunaltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruxiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalgalash;
- o'quvchilarning ta'limdagi tenglik xuquqini kafolatlash;
- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va saglom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy xayotga erta moslashtirish;
- imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarni oilalardan ajramagan holda yashash xuquqini ruèbga chiqarish;
- jamiyatda imkoniyatti cheklangan bolalar va usmirlarga nisbatan dustona va mexr-muxabbatli munosabatni shakllantirishdir.

Inklyuziv ta'limning muammolari hozirgi kunda juda ko'p. Jumladan,

ko'plab davlatlarda inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha davlat normativ hujjatlarida qayd qilinmaganligi;

Nogiron bolalarga nisbattan salbiy munosabat;

Imkoniyati cheklangan bolalarning hamjamiyatda ko'rinnmaslik muammosi; Imkoniyati cheklangan bolalarning muktabda ko'rinnmaslik muammosi;

Moddiy mablag' muammolari;

Ta'lim muassasalarini moslashtirish;

Sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi;

Kambag‘allik;  
Jinsiy tafovutlarga qarab kamsitish;  
Imkoniyati cheklangan bolalarning boshqalarga qaramligi;  
Favqulodda vaziyatlar , mojarolar, qochoqlar;  
Kadrlar masalasidagi muammolar.

Haqli savol tug‘iladi, nima uchun imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’lim tizimiga jalb etish kerak? Yuqorida keltirilgan dalillarni hal etib inklyuziv ta’lim tizimiga o’tishga qanday zaruriyat bor? Darhaqiqat, bu ta’lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish oson kechmaydi. Ammo bu ta’lim tizimining kerakli jihatni juda ko‘p ular sirasiga qo‘yidagilar kiradi:

- Inklyuziv ta’lim qashshoqlik iskanjasidan qutilishga imkon beradi;
- Inklyuziv ta’lim barcha uchun ta’lim sifatini yaxshilaydi;
- Kamsitishlarni oldini oladi;
- Inklyuziv ta’lim yanada inklyuzivlikka olib keladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida Inklyuziv ta’limning quyidagi talab, prinsiplari mavjud:

1. Insonning qadr- qimmati, uning qobiliyati va yutug‘iga bog‘liq emas.
2. Har bir inson o‘ylash va his qilish qobiliyatiga ega.
3. Har bir kishi eshitish va muloqot qilish qobiliyatiga ega.
4. Har bir kishi bir-biriga muxtoj.
5. Shaxsning to‘liq va haqiqiy ta’lim olishi faqat real hamkorlikda amalga oshadi.
6. Hamma kishilar o‘z tengdoshlarini qo‘llab quvvatlashga muxtoj.
7. Hamma ta’lim oluvchilarni yutuqga erishishiga ularning nimadir qila olmasligi emas, balki nimanidir qila olishidir.
8. Hamkorlik qilish kishi haётini har tomonlama ko‘chaytiradi.

Inklyuziv ta’lim tizimi quyidagi ta’lim muassasalarni o‘z ichiga oladi; maktabgacha, umumta’lim, umum o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim. Bu ta’lim muassasalarning maqsadi bolalarning ta’lim olishi va kasb-hunarga taylorlashda ularning o‘rtasidagi to‘sinqinlikni bartaraf etib ochiq ta’lim muhitini yaratishdan iborat.Umumta’lim makkablarda alohida dastur va darsliklardan foydalanish imkoniyati bo‘lmaydi. Inklyuziv ta’lim tizimi integratsiyalashgan ta’lim tizimidan o‘zinig mazmun - mohiyati, maqsadi, vazifalari va harakat dasturi bilan farqlanadi. Bolaning tarbiya va o‘quv faoliyatida orqada qolishi psixik funksiyalarni o‘zlashtirmaganligi natijasidir. Masalan, bolaning kiyim kiyishida ketma-ketlikning buzilishi uning xotirasi zaifligidan emas, balki ushbu jarayonni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan malakalarni egallamaganligi tufayli ro‘y beradi. Bunday psixik muammoni psixoreksiyalash usullari bilan birga bolaga kiyimlarni to‘g‘ri ketmekteklidka kiyish tasvirlangan rasmlar taqdim etilishi mumkin.

L.S.Vigotskiy ijtimoiy muhit sog‘ligi imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun birinchi darajali ahamiyatga egadir, degan g‘oyani ilgari suradi. Xuddi shuningdek, u imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanishini ildizi yomon o‘simlikka o‘xshatadi. “Uning ingichkagina ildizlari oziqlantiruvchi tuproqning qatlamlari va shakliga mos kelmaydi. Ular o‘z-o‘zicha tuproqning oziqa beruvchi qatlamlariga yetib borolmay, quruq va zaharli qatlamga kirib qoladi. Bunday o‘simlik muvofiq sharoitlarda gullashi mumkin edi, biroq odatdagagi sharoitda taraqqiyotning cho‘qqisiga yetmasdan, bujmayib so‘lib qoldi”, deydi. Binobarin, ta’lim-tarbiya

tizimini har bir millat va elatning o'ziga xos tomonlari, milliy an'analari, urf-odatlari, davlatning maqsad-vazifalari hamda tarbiyalanuvchilarning ruhiy va jismoniy rivojlanishidagi xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Imkoniyati cheklangan bolalarda kattalar bolaning rayiga, mustaqil bo'lishiga qarshi turmasdan, mumkin qadar istagi, intilishiga yordam bersalar, uning shaxsini shakllantirish jarayonidagi qiyinchiliklar o'z-o'zidan barham topadi. Imkoniyati cheklangan bolada o'jarlik, qaysarlilik, itoatsizlik xususiyatlari paydo bo'lishi bu kattalarning haddan tashqari paypaslaganliklari oqibatida vujudga keladi.

Psixolog olima L.M.Krijanovskaya imkoniyati cheklangan bolalarning inklyuziv ta'lism tizimida ta'lism-tarbiya berishda psixologik korreksiyalash metodlari orqali tarbiyalash yo'llarini keng yoritib bergen. Uning fikricha, inklyuziv ta'lism tizimida ta'lism-tarbiya ishlarining samarali bo'lishi, yaxshi yutuqlarga erishishda maktab psixologi, pedagog, tarbiyachi va ota-onalar hamkorligi uzviy bog'langan bo'lishi lozim.

Inklyuziv ta'lism tizimida jahon miqyosida amaliyotga joriy qilish borasida bugungi kunga qadar ham juda ko'plab muammolar va to'siqlar mayjud. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

Salbiy munosabat;  
Hamjamiyatda ko'rinnmaslik;  
Moddiy mablag' muammolari;  
Jismoniy moslashtirish;  
Sinfdag'i o'quvchilar soni;  
Qaramlik;  
Jinsiy belgilarga qarab kansitish;  
Favqulodda vaziyatlar, mojorolar va qochoqlar.

Salbiy munosabat maxsus ehtiyojli bolalarning umumta'lism muassasalari tizimida ta'lism-tarbiya olaishlari uchun eng katta to'siq bo'lsa kerak. Salbiy munosabat muammosining mazmuni shundaki, ota-onalar, hamjamiyat a'zolari, o'qituvchilar, umumta'lism muassasalari hodimlari, boshqaruva organlaridagi hatto maxsus ehtiyojli bolalrning o'zlaridagi umumta'lism muassasalarida ta'lism tarbiya olishlariga nisbatan qashilklari va buni istamasliklaridir. Bunga sabab nogironlarga nisbatan insonlardagi noto'g'ri fikr, ular to'g'risida ma'lumotlarning yetishmasligi, nogiron bolalarning chegaralangan muhitda o'sganligi va boshqalardir. Hamjamiyatda ko'rinnmaslik muammosining mazmuni shundaki, ko'pincha ko'plab maxsus ehtiyojli bolalar ota-onalar tomonidan qattiq berkitiladi. Ularni uya qamab hech kimga ko'rsatmaydilar, ro'yxatga olish jarayonida nogiron bolasi to'g'risida hech bir ma'lumot berilmaydi. Natijada ko'plab nogiron bolalar hamjamiyatda shtirok etishdan mahrum bo'ladilar. Ular to'g'risida hech bir ma'lumotni bo'lmasligi ta'lism-tarbiya muassasalariga qatnamasliklariga olib keladi.

### Xulosa

Hozirgi kunda inklyuziv ta'lism amaliyoti respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi tomonidan olib borilayotgan loyihibar asosida takomillashib bormoqda. Muammolar aniqlanib, tegishli yechimlar topish borasida tajriba sinov ishlari olib borilmoqda. Inklyuziv ta'limga e'tirof etilishi tamoyili mazmuni shundaki, 1990-yildan buyon alohida yordamga muhtoj bolalarni umumta'lism muassasalari tizimida o'qitish borasida bir qancha jahon miqyosida dekloratsiyalar va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahoning ko'plab davlatlari e'tirof

etdilar. Ammo bugungi kunga qadar ularni hayotga joriy qilish borasida ko‘plab muammiolar mavjud. Ba’zi davlatlarda esa umumiy ta’lim borasida qonun yoki qarorlar qabul qilinganda nogiron bolalarning ta’lim masalasi kiritilmaydi. Ammo inklyuziv ta’limni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog‘liq bo‘lmaydi. Diskriminatsiya (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto‘g‘ri fikrlashga qarshi kurashish - eng muhim narsadir.

Ya’ni inklyuziv ta’limni e’tirof etgan holda, aholi o‘rtasida targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi galdegisi masaladir. Inklyuziv ta’limning barcha uchun ochiq bo‘lishi tamoyili. O‘tgan yigirma yil davomida alohida yordamga muhtoj bolalarni umumta’lim muassasalari tizimida o‘qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ammo inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilish asosan shaharlar miqyosida bo‘lib, qishloqlardagi hududlarda hali-hamon alohida yordamga muhtoj bolalar ta’limdan chetda qolib ketmoqda yoki qishloqlardagi ota-onalar nogiron farzandini shaharlardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta’minalash uchun qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham alohida yordamga muhtoj bolalarni inklyuziv ta’limga jalb etish barcha hududlarda, barcha alohida yordamga muhtoj bolalarni qamrab olgan bo‘lishi ta’minalishi lozim. Bog‘lanishning mavjud bo‘lishi tamoyili so‘zning zamirida ommaviy binolarning sifati, ayniqsa, alohida yordamga muhtoj bolalar uchun makteblarga kirishning oson bo‘lishi kabilar yotadi. Bola muktab binosiga zinapoyalar aravachada yurishga moslashtirilmaganligi sababli kira olmaganligi yoki muktab hojatxonasi aravachada harakatlanuvchilarga moslashtirilmaganligi uchun oddiy muktabdan chiqarib tashlanmasligi kerak. Bu kabi qulayliklarni yaratish unchalik katta mablag‘ talab qilmaydi. Yangi muktab binosi alohida yordamga muhtoj bolalarning ehtiyojlarini e’tiborga olgan holda rejalashtirilgan paytdan boshlab qurilishi kerak. Shubhasiz, alohida yordamga muhtoj bolalar uchun yaxshi bo‘lgan qulayliklar normal rivojlanishdagi bolalar uchun hech bir muammo keltirib chiqarmaydi. Jismonan bog‘lanishlarni yaratish inklyuziv ta’limning asosiy muammolarini hal etishga xizmat qiladi.

Markazlashtirilmagan bo‘lishi tamoyili mazmuni quyidagicha ifodalaniladi: A) Inklyuziv ta’lim xizmatlari umumiy ta’lim tizimining integratsiya qilingan qismi bo‘lishi kerak. B) Inklyuziv ta’lim tizimidgi vazifalar mahalliy ta’lim organlariga javobgarlik va boshqaruvni yuklash uchun markazlashmagan holda olib borilishi va imkoniyatlar mahalliy sharoitlarga moslashtirilishi lozim. Optimal integratsiyaga erishish uchun markazlashtirilmagan bo‘lish muhimdir. Bu ayniqsa qishloq sharoitlarida ayni muddao bo‘ladi. Inklyuziv ta’limning vazifalari alohida yordamga muhtoj bolalarga o‘z ota-onalari bilan birga bo‘lish, ularga xuddi tengdoshlari kabi o‘zlariga yaqin bo‘lgan makteblarda ta’lim olish imkonini beradi. Bu ularda shaxsiy sifatlarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Alohida yordamga muhtoj bolaning normal rivojlanishiga halaqt berish, nogironlikdan ham og‘irroq holatlarga olib kelishi mumkin. Inklyuziv ta’limda kompleks yondashishi tamoyili. Alohida yordamga muhtoj bolalarga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashish emas, balki bu bolalarga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa alohida yordamga muhtoj bolalar uchun ta’lim masalasini rejalashtirayotganda uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ehtiyojlarni hisobga olgan holda reja tuzish talab etadi. Bu tamoyilning mohiyatida yordamga muhtoj bolalarga ilk yosh davrida erta yondashish ham yotadi. Alohida yordamga muhtoj bolalar ta’limi boshlang‘ich va o‘rtamaxsus ta’limni olishlari bilan yakunlanmasligi kerak.

Alovida yordamga muhtoj bolalarning kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limi ham amalga oshirilishi talab etadi. Chunki inklyuziv ta'lim tizimining vazifalaridan biri alovida yordamga muhtoj bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta'minlashdan iboratdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ziyomuhhammadov B. Pedagogika. Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. - T.: «Turon -Iqbol». 2006.
2. Выготский Л.С. Дефект и сверхкомпенсация. // «Проблема дефектологии». М., 1996. -С. 42.
3. Крыжановская Л.М. Психологическая коррекция в условиях инклюзивного образования. Пособие для психологов и педагогов. - М.: «Владос», 2013. 83-б.
4. Maktablar hamma uchun – Save the children – 2002y. 20\23 bet
5. Ibadullayeva, S. N., Masaliyeva, S. (2022). Inkluyziv ta'lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirish omillari. Inklyuziv ta'lim, 1(2), 111-113.
6. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2021). Nogironligi bo'lgan ota-onas qaramogida bo'lgan yetim bolalarni ijtimoiylashtirishning metodik klasteri. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 6(1), 280-286.
7. Ibadullayeva, S. N., Jurayeva, Z. (2021). Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda korreksion mashg'ulotlarning ahamiyati. Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari, 1(1), 35-70.